INNOVATSION JAMIYATDA AYOLLAR LIDERLIGINING TRANSFORMATSION XUSUSIYATLARI

Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sayyoraxonjabborova754@gmail.com
Tel.: +998-93-413-34-02

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion jamiyat sharoitida ayollar liderligining transformatsion xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, bilimlar iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi ayollar liderligining mazmuni va shakllariga ko‘rsatayotgan ta’siri yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda ayollarni rahbarlik faoliyatiga tayyorlash, ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish hamda boshqaruv tizimidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlarning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida innovatsion jamiyatda ayollar liderligini rivojlantirish inson kapitalini yuksaltirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning muhim omillaridan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion jamiyat, ayollar liderligi, transformatsiya, rahbar ayol, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, gender tengligi, ijtimoiy falsafa, bilimlar iqtisodiyoti, inson kapitali.

XXI asrda innovatsion taraqqiyot jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi boshqaruv tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda liderlik tushunchasi ham yangi mazmun kasb etib, ijodkorlik, innovatsion

fikrlash, moslashuvchanlik va samarali kommunikatsiya kabi kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan ayollar liderligi innovatsion jamiyatning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga keng jalb etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon ayollar liderligining transformatsion xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Innovatsion jamiyatning asosiy belgilaridan biri bilim va innovatsiyalarni taraqqiyotning bosh omiliga aylantirishdir. Bunday jamiyatda rahbar nafaqat boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxs, balki yangiliklarni yaratish va joriy etishga qodir lider sifatida namoyon bo'ladi. Ayollar liderligi ham aynan shu jarayonda yangi mazmun kasb etib, an'anaviy boshqaruv modelidan transformatsion liderlik modeliga o'tmoqda. Transformatsion liderlik xodimlarni umumiy maqsad sari ilhomlantirish, jamoada innovatsion muhit yaratish, strategik fikrlashni rivojlantirish va o'zgarishlarni samarali boshqarish bilan tavsiflanadi. Zamonaviy ayol rahbar boshqaruv jarayonida insonparvarlik, ochiq muloqot, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini uyg'unlashtiradi. Bu esa tashkilotlarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya ayollar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Masofaviy boshqaruv, elektron hukumat tizimlari, raqamli platformalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish ayollarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, onlayn ta'lim va kasbiy rivojlanish platformalari ayollarning zamonaviy kompetensiyalarni egallashiga, xalqaro tajribani o'rganishiga hamda professional tarmoqlarda faol ishtirok etishiga imkon bermoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari ham innovatsion jamiyatda ayollar liderligini qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla institutlari, xotin-qizlar tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ayollarni ijtimoiy loyihalarga jalb etish, ularning tashabbuslarini qo'llab-

quvvatlash hamda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ayollar liderligining transformatsiyasi shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va innovatsion tafakkurni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy ayol rahbar tashkilotning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bilan bir qatorda jamoada ishonch muhitini yaratish, ijodkorlikni rag‘batlantirish va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Yangi O‘zbekistonda ayollar liderligini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati innovatsion taraqqiyot maqsadlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida ularning ishtirokini kengaytirish hamda rahbar kadrlarni tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar transformatsion liderlikning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Innovatsion jamiyat ayollar liderligining mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy ayol rahbar yuqori kasbiy malaka, raqamli kompetensiya, strategik fikrlash, innovatsion yondashuv va kuchli kommunikativ salohiyatga ega bo‘lishi zarur. Fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim tizimi va davlat siyosatining o‘zaro hamkorligi ayollar liderligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollar liderligini innovatsion rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qo‘llab-quvvatlash, ularning boshqaruv tizimidagi ishtirokini kengaytirish va zamonaviy liderlik kompetensiyalarini shakllantirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti hamda inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ–562.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF–60.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi**.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
7. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper Business, 1985.